

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SON-SANOQQA
O'RGATISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH.**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИА В ПОДГОТОВКЕ
ДОШКОЛЬНИКОВ В НОМЕР.**

**THE USE OF MULTIMEDIA IN THE EDUCATION OF NUMBER OF
PRESCHOOL CHILDREN.**

Normamatova Maryam Mamarajab qizi.

**Talim tarbiya nazariyasi va metodikasi(maktabgacha ta'lim) 1-bosqich
magistranti.**

Annotasiya:Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni son-sanoqqa o'rgatishda multimedia vositalaridan foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Аннотации: В данной статье рассматривается использование мультимедиа в обучении детей дошкольного возраста счету.

Annotation:This article discusses the use of multimedia in teaching preschool children to count.

Tayanch so'zlar: multimedia, mediamadaniyat, media ta'lim, progressiv pedagogik texnologiya, nutq, kreativ fikrlash, kognitiv qobiliyat, mediapedagog, operatsion zal, animatsiya effekti, videotasvirlar, grafikli tasvirlar, ma'lumot grafiklari, mikrofon, kompakt disk, matn, grafika, tovush, multimedia mahsuloti,

Ключевые слова: мультимедиа, медиакультура, медиаобразование, прогрессивные педагогические технологии, речь, творческое мышление, познавательные способности, медиапедагог, операционная, анимационный эффект, видео, графика, информационная графика, микрофон, компакт-диск, текст, графика, звук, мультимедийный продукт

Key words: multimedia, media culture, media education, progressive pedagogical technology, speech, creative thinking, cognitive ability, media educator, operating room, animation effect, video, graphics, information graphics, microphone, CD, text, graphics, sound, multimedia product.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qitish o'ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshida yechilishi kerak bo'lgan vazifalar hal qilinmasa, maktabgacha o'qitish muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Bu vazifalardan biri konkret bilimlar va tafakkur usullaridan abstrakt bilim va usullarga o'tishdan iborat. Bu xil

o'tish [saviyasi](#), ayniqsa, matematika o'qitish uchun zarurdir. Bunday savyaining bo'lmasligi yoki etarli bo'lmaligi ikki tomonlama qiyinchilikka olib keladi. Bir tomondan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ko'pincha maktabga mavhum matematik usullarni egallagan holda keladilar, ularni bartaraf qilish juda qiyin bo'ladi. Ikkinchi tomondan, bolalar maktabda abstrakt [bilimlarni egallar ekanlar](#), ko'pincha [ularni formal](#), asl mazmunini tushunib etmagan holda o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham konsret shart – sharoitlarda matematik usullarni egallagan holda keladilar, ularni bartaraf qilish juda qiyin bo'ladi. Ikkinchi tomondan, bolalar maktabda asbtrakt bilimlarni egallar ekanlar, ko'pincha ularni formal, asl mazmunini tushunib etmagan holda o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham konkret shart – sharoitlarda matematik bilimlarni qo'llanish imkoniyati juda cheklangan bo'ladi. Shu sababli maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qitishning muhim vazifasi matematik asbtraktlashlar bilan konkret borliq orasidagi bog'lanishni ta'minlaydigan bilim va harakatlarning oraliq saviyasini shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak. Tekshirishlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdagi bolalarga matematika o'qitishda o'tish saviyasi mazmuni quyidagilardan iborat:

Birinchidan, shunday faoliyat va masalalarni o'zlashtirish kerakki, ularda matematik operasiyalarni qo'llashning zarurligi bolalarga yaqqol ko'rinib turadi. Bu, bir tomondan, bolaning seminar faoliyati bilan bevosita bog'liq (tenglashtirish, taqqoslashga oid) masalalar, ikkinchi tomondan, ularga [shunday shartlar kiritiladiki](#), bunda mazkur masalalarni matematik vositalardan foydalanmay turib (masalan, fazoda ajratib qo'yilgan ikki to'plamni amalda tenglashtirish) amalga oshirish mumkin bo'lmaydi.

Ikkinchidan, muhitning shunday munosabatlarini ajratish kiradiki, bu munosabatlarni qo'llanish bolaga konkret buyumlardan matematik obektlarga o'tish (masalan, buyumlarni ma'lum belgilari bo'yicha guruhga kiritish va shu asosda to'plam munosabatlarini, tenglik – tengsizlik munosabatlarini, qism – butun munosabatlarini hosil qilish) imkonini beradi.

Tekshirish natijalari shuni ko'rsatadiki, matematik operatsiyalar maktabgacha yoshdagi o'zlashtirilgan shunday masalalar va munosabatlar asosida [kiritilsa va qayta ishlansa](#), matematikani egallash samaraliroq bo'ladi. Yo haddan tashqari konkretlik, yo matematik bilimlarning formalligi tufayli paydo bo'ladigan qiyinchiliklar ma'kul holda paydo bo'lmaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qitishda matematik bilimlar tarkibini tekshirish tenglik – tengsizlik, qism – butun munosabatlari, bilvosita tenglashtirish sanoq va arifmetik amallarni to'liq va ongli o'zlashtirish uchun asos bo'ladigan sodda masalalar va munosabatlarning o'zidan iborat ekanini ko'rsatdi. Bu munosabat va masalalarni (ularning eng sodda shakllarini bolalar 3 yoshdan boshlab tushuna boshlaydilar. Ular bunday mashg'ulotlarga katta [qiziqish bilan yondashadilar](#), xuddi shu urning o'zida o'zlashtirganlari (tenglik, qism – butun va h.k. munosabatlari)ni o'yinlarga ko'chiradilar, turmushda seminar ishlar qilishda foydalanadilar, bir – birlariga (katta va tayyorlov guruhi bolalari) shunga o'xshash masalalarni taklif qiladilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tasavvurlarnini o'rganish, tekshirish asosida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish dasturi tuzildi. Bu dastur quyidagi besh bo'limdan iborat: “Miqdor va sanoq”, “Kattalik”, “Geometrik figuralar”, “Fazoda mo'ljal olish”, “Vaqtga nisbatan mo'ljal olish”.

Maktabgacha yoshdagi kichik guruh bolalarini sanoqqa o'rgatishdagi bosh vazifalardan biri bir to'plam elementlarini ikkinchi to'plam [elementlari bilan taqqochlash](#), solishtirish yo'li orqali bolalarni to'plamlarni taqqoslashga o'rgatishdan iborat. Bu dastlabki bosqich kelgusida sanoq faoliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bola miqdoriy taqqoslash usullarini egallaydi. Bola sanashni bilmaydi, shu sababli u oldin taqqoslanayotgan to'plamlarning qaysinisi ko'p qaysinisi kam ekanini, yoki ular teng quvvatli ekanini aniqlashni o'rganadi. Bolalarda kelgusida matematik tasavvurlarni rivojlantirish ko'p jihatdan sanoqqa o'rgatishning boshlang'ich davriga bog'liq.

Ikkinchi kichik guruhda tarbiyachi bolalarda to'plam alohida bir jinsli elementlar (buyumlar) majmui haqidagi tasavvurni rivojlantirishi kerak.

O'qitishni buyumlarining sifat, xossalarini ajratishga oid mashqlardan boshlash kerak. Masalan, bir qancha o'yinchoqlar ichidan xuddi tarbiyachi qo'lidagidek o'yinchoqni topish taklif qilinadi. "Xuddi shunday o'yinchoqni topish taklif qilinadi. "Xuddi shunday kubchani (bayroqchani, sharni) ber". Shundan keyin har kubchani (bayroqchani, sharni) ber". Shunday keyin har xid rangli (o'lchamli, shakldagi) 2 -3 ta buyum orasidan xuddi shu rangdagi (o'lchamli, shakldagi) buyumni tanlash topshirig'i beriladi.

Navbatdagi bosqich berilgan belgi – alomatlari bo'yicha buyumlarni tanlash va guruhlarga ajratishga, oid mashqlardan iborat bo'lishi kerak. Masalan: "Qizil rangli hamma kubchalarni mana bu qutiga sol, bu qutiga esa hamma kichik matryoshkalarni yig', mana bunisiga esa hamma katta matryoshkalarni yig'". Bunday mashqlar natijasida bolalar har xil buyumlarning umumiy belgilari bo'yicha bir guruhga birlashtirish mumkin ekanini tushuna boshlaydilar: "Bular qo'g'irchoqlar", "Bular koptoklar", "Bular bayroqchalar" kabi.

Tarbiyachi bolalarni guruhdagi buyumlarning birov qismi uchungina umumiy bo'lgan belgilarni ko'ra olishga o'rgatadi. Masalan, bayroqchalar ko'pligini, ammo ularning ba'zilar sariq, bu'zilar esa ko'k ekanini ko'rsatadi. (Sariq bayroqchalar ko'p, ko'k bayroqchalar ham ko'p).

Miqdor haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda bir jinsli (bir xil) buyumlardan guruhlar tuzish va guruhni alohida buyumlarga ajratishga doir har xil o'yin – mashqlar ma'lum o'rinni olishi kerak. Odatda bu o'yin – mashqlar ma'lum o'rinini olish kerak. Odatda bu o'yin mashqlar darsda ma'lum izchillikda o'tkaziladi.

Birinchi mashg'ulotda bir xil o'lcham va rangli mutlaq aynan o'yinchoqlarning – sabzilar, archalar, jo'ja qancha bo'lsa, o'yinchoqlar ham shuncha bo'lishi kerak. Tarbiyachi dastlab bolalarga bittadan o'yinchoq ulashadi, o'z harakatlarini ushbu

so'zlar bilan tushuntiradi: "Men archalar juda ko'p. Men bolalarning hammasiga bittadan archa berib chiqaman. Menda bitta ham ham archa qolmaydi..." shunday keyin bolalarga murojaat qiladi "Har biringizda nechtdan archa bor?" Shundan keyin tarbiyachi hamma o'yinchoqni yig'ib oladi, bunda u bitta ham yo'q (bolada) juda ko'p (tarbiyachida) so'zlariga urug' beradi.

Mashqni boshqa o'yinchoqlar bilan yana bir marta takrorlash mumkin. Har gal tarbiyachi ko'p, bitta, [bittadan](#), bitta ham yo'q, hech narsa yo'q so'zlarini ishlatadi; "Qancha?", "Qanchadan?" – savollarini qo'yadi. Kichkintoylar buyumlarni va ular qanchadanligini (ko'p, bitta) aytadilar. Mashg'ulotning borishida bolalar to'plam alohida yuumlarga ajralishiga va alohida buyumlardan tuzilishi mumkinligiga ishonch hosil qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamrayeva, A. (2021). Ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnoloik yondoshuv. *Мактабгача таълим журнали*.
2. Hamrayeva, A. (2021). Педагог тарбиячиларда компетентликни ривожлантириш. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal).
3. Hamrayeva, A. - Мактабгача таълим журнали, 2021 [Ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnoloik yondoshuv](#)
4. [Development of professional competence of the future pedagogical teacher](#)
ХА Farxadovna - European Journal of Molecular&Clinical Medicine, 2021
5. [Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni](#)
AF Hamrayeva - Academic research in educational sciences, 2021
6. Хамраева, А. Ф. (2021). БЎЛАЖАК ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИНГ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1082-1086.

7.Хамраева, А. Ф. (2021). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТАВФСИФИ. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1110-1114.